



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI
O‘ZBEKISTON TEXNIK JIHATDAN TARTIBGA SOLISH
AGENTLIGI DIREKTORINING
BUYRUG‘I**

51-son
“7” oktyabr 2024-yil

***O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi huzuridagi jamoatchilik
kengashi faoliyatini qayta tashkil etish to‘g‘risida***

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 26-avgustdagi “Fuqarolik jamiyati institutlarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-124-son Farmoni ijrosini ta‘minlash maqsadida,

B U Y U R A M A N:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 26-avgustdagi “Fuqarolik jamiyati institutlarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-124-son Farmoni ijro uchun qabul qilinsin va O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi (keyingi o‘rinlarda — Agentlik) huzuridagi jamoatchilik kengashi faoliyati qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda hamda mazkur Farmonning 8-bandida nazarda tutilgan talablar asosida qayta tashkil etilsin.

2. Farmon bilan quyidagilar belgilanganligi inobatga olinsin:

davlat organlari huzuridagi jamoatchilik kengashlari (keyingi o‘rinlarda — jamoatchilik kengashlari) raislari fuqarolik jamiyati institutlari vakillari orasidan tasdiqlanadi;

har yili jamoatchilik kengashlarining faoliyati samaradorligi baholanadi va uning natijalari e‘lon qilinadi;

jamoatchilik kengashlarining faol a‘zolari davlat organining budjetdan tashqari mablag‘lari hisobidan moddiy rag‘batlantirib boriladi.

Bunda, rag‘batlantirish to‘lovlari tegishli tashkilot tomonidan har yili jamoatchilik kengashlarining faoliyati samaradorligi baholangandan so‘ng uning natijalari asosida amalga oshiriladi.

3. “Yuksalish” harakatiga uning so‘roviga asosan jamoatchilik kengashi faoliyatiga doir ma‘lumotlar taqdim etib borilishi ta‘minlansin.

4. Agentlik huzuridagi jamoatchilik kengashi tarkibi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. Agentlik huzuridagi “Jamoatchilik kengashi to‘g‘risidagi Nizom” 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

6. Agentlikning 2022-yil 1-apreldagi 14-son buyrug‘i o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

7. Direktorning matbuot kotibi (R. Rasulov) jamoatchilik kengashi majlislari va boshqa tadbirlarni tizimli tashkil etish, mazkur uchrashuvlarni ommaviy axborot vositalarida keng yoritish hamda “Yuksalish” harakatining so‘roviga asosan jamoatchilik kengashi faoliyatiga doir ma’lumotlarning taqdim etib borilishi ta’minlansin.

8. Mazkur buyruq ijrosini nazorat qilishni o‘z zimmamda qoldiraman.

Direktor



A. Jumanazarov